

**O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI
(XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA)**

Ismoilova Maftuna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi

Gid hamrohligi va Tarjimonlik fakulteti magistranti

Annotatsiya: O‘zbekistonda turizm industriyasi jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda, turizmning rivojlanishi barqaror bo‘lishini ta‘minlash, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo‘shish zarurati paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada boshqa mamlakatlarning turizm industriyasini rivojlantirish tajribasi ko‘rib chiqilib, O‘zbekistonda hal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy muammolar aniqlanadi. Bu masalalar qatoriga takomillashtirilgan infratuzilma va ob‘ektlar zarurligi, madaniy va tabiiy merosni asrab-avaylashning ahamiyati, samarali marketing va targ‘ibot zarurati, turizmni rivojlantirishda jamoatchilik ishtirokining ahamiyati kiradi. Maqolada ushbu muammolarni hal qilish orqali O‘zbekiston turizmning barqaror rivojlanishiga erishishi va turizmdan mamlakat iqtisodiyoti va jamiyati uchun maksimal foyda keltirishi mumkinligini ta‘kidlanadi. Tadqiqot tegishli adabiyotlarni ko‘rib chiqish va boshqa mamlakatlarda turizmni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tadqiqotlarga asoslangan. Ushbu tadqiqotning xulosalari va tavsiyalari O‘zbekiston turizm industriyasidagi siyosatchilar va manfaatdor tomonlar uchun ushbu sohaning kelajakdagi rivojlanishini yo‘naltirishda foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar. turizmni rivojlantirish, O‘zbekiston, barqaror turizm, infratuzilma, madaniy meros, tabiiy meros, xorijiy mamlakatlar tajribasi, jamoatchilikni jalb qilish, amaliy tadqiqotlar.

KIRISH

Jahonda turizm sohasi barcha infratuzilmalarni rivojlantirishga bevosita va bilvosita ta‘sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida gavydalanadi. Zamonaviy turizm transport, ijtimoiy va xizmat ko‘rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslangan bo‘lib, bu oxir-oqibat uni iqtisodiyotning yuqori rentabelli sohasiga aylantiradi. O‘zbekiston Respublikasida mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq turizm sohasini davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash, mazkur soha bilan shug‘ullanuvchi korxonalariga imtiyozlar yaratib berish, shuningdek, turizm sohasi uchun infratuzilmani shakllantirish borasidagi ishlar jadal sur‘atlar bilan davom ettirilmoqda. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston 1993 yil 4 oktyabrda Butunjahon turizm tashkilotiga Markazi Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib a‘zo bo‘ldi. Bu o‘z navbatida O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish ishlariga katta ijobiy turtki berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 5 yanvardagi

“O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF 5611 sonli qarorida “2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi”¹ga muvofiq Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi, tashiladigan yo‘lovchilar soni va investitsiyalarni ko‘paytirish uchun respublikadagi transport aloqa tizimini tubdan yaxshilash maqsadida xorijiy aloqalarni yanada mustahkamlashga alohida e‘tibor berildi. Respublikamizda turizmni rivojlantirish juda katta iqtisodiy samara berishi hammamizga ayon, chunki u xorijga resurs chiqarmay (paxta, gaz, neft) valyuta olib kirish imkonini beradi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda turizmdan keladigan daromad boshqa sohalarga qaraganda ancha ko‘proq valyuta tushumlarini keltiradi. Masalan: Turkiya yiliga 4-5 mlrd. dollarlik tovar eksport qilsa, turizm faoliyatidan 10 mlrd. dollardan ortiq daromad oladi. Avstriya, Angliya, Italiya, Fransiya, Ispaniyalarda ham xuddi shunday yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rishimiz mumkin. Mazkur soha kuzatuvchilari sayyohlik va turizm iqtisodiy rivojlanishning drayveri – harakatlantiruvchi kuchi ekani haqida yakdil fikr bildirmoqda, ushbu sohalar yangi ish o‘rinlariga zamin yaratish barobarida (ICAO ma‘lumotiga ko‘ra, 2017 yilda har 10 ish o‘rnining bittasi shu sohaga tegishli bo‘lgan) ijtimoiy rivojlanishga katta hissa qo‘shadi. Turizm xizmat ko‘rsatishga asoslangan iqtisodiyotni yaratish va rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Ushbu faoliyat doirasi Toshkentdagi yirik mehmonxonalardan tortib, Samarqanddagi kichik xostellar, xalqaro aeroportlardagi butiklar, Buxoro va Xivaning xushmanzara ko‘chalaridagi kichik hunarmandchilik do‘konlarigacha bo‘lgan qamrovni qamrab oladi. U insonlarda iqtisodiy ko‘nikmalarni oshiradi, bilim ufqlarini kengaytiradi. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda, jumladan, eng rivojlangan 10 ta mamlakatda butun sa’y-harakatlar chet ellik sayyohlarni jalb etishga qaratilmoqda. Turizm rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, ayniqsa, pul oqimini oshirishda foydali bo‘lishi hammaga ma‘lum².

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon tadqiqotlarida turizm sohasida alohida e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, hozirgi kunda rivojlangan davlatlar ilmiy tadqiqotlarida turizm sohasini ularning iqtisodiyotiga, ijtimoiy sohasiga, ekologiya va boshqa sohalarga ta’siri o‘rganish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib bormoqdalar. Ushbu tadqiqotlarning asosiy mazmunida ijtimoiy kapitalning turizm yo‘nalishida olib borilayotgan siyosatga mos tushadimi. Ushbu jumboqni ochib berishda bir nechta olimlar AQSH 3 ta shtati, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlarida 74 qiziqish bildirgan tomonlar bilan tadqiqot o‘tkazilgan. Ushbu tadqiqot natijasiga ko‘ra ular o‘zaro bog‘liq bo‘lib ijtimoiy kapitalning o‘sishi turizm sohasini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611 Farmoni.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611 Farmoni.

rivojlanishiga bilvosita ta'sir o'tkazishi asoslangan³. Kujel Yu. o'zining darsligida turizm sohasini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini ochib bergan. Bunda mamlakatning eng tez rivojlanadigan sohasi sifatida turizmga alohida e'tibor qaratish zarurligini keltirib o'tadi⁴. Rossiyalik olimlar N.Morozova va M.Morozovning fikriga ko'ra zamonaviy turizm industriyasi yangi kompyuter texnologiyalarini joriy etilishi bilan ulkan o'zgarishlarga ega bo'ldi. Har qanday tashkilotni turistik biznes bozorida zamonaviy axborotlar texnologiyasidan foydalanilmasdan muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi amaliyotda mumkin emas. N. Xaydarovning fikriga ko'ra, mamlakatda ta'lim sohasiga xorijlik talabalarni qabul qilishni keskin ko'paytirish kerak. Ular kamida 4 yil o'qish davrida turistlar kabi hayot kechiradi. Ularni o'qish davrida ota-onalari va yaqin do'stlari ko'rib ketish uchun kelib-ketish imkoniyati juda katta. Ko'rib o'tilgan mutaxassislarning fikriga ko'ra, turizm sohasini rivojlantirish mamlakatning barcha sektorlarining rivojlanishiga bevosita ta'siri yuqori ekanligi asoslab berilgan. Hozirgi kunda mamlakatimiz turizm salohiyatini rivojlangan davlatlar foydalanayotgan tajribalar asosida mavjud bo'lgan turistik salohiyatdan foydalanish orqali dunyoga namoyon qilish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida turizmni rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi. Turizm bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Tezida nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, sintez kabi usullardan samarali qo'llanildi.

Izlanishlar natijalari: Birlashgan Millatlar Jahon Turizm Tashkiloti (United Nations World Tourism Organization (UNWTO)) ma'lumotlariga ko'ra, butun jahon yalpi ichki mahsulotining 10,4%i (2017 yilda uning hajmi 8,3 trln. AQSH dollariga teng bo'ldi), dunyodagi investitsiyalarning 7%i, soliq tushumlarining 5%i, jahondagi iste'molchilik xarajatlarining 11%i va har 16 ta yangi yaratilayotgan ish o'rnining bittasi aynan turizm va mehmondo'stlik industriyasining hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mazkur tarmoqda aholining ish bilan bandlik darajasi 2016 yilga nisbatan 103% ga o'sdi va 2017 yilda turizm va sayyohlik sohasida bevosita 118,4 million kishi (jahondagi umumiy bandlarning 3,8%i) ish bilan band bo'lgan bo'lsa, bilvosita (turizmga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar bilan birga) 313,2 million kishi faoliyat ko'rsatmoqda. Gruziya so'nggi bir necha yilda chet ellik turistlar sonini uch marta oshirgani bilan maqtovga sazovor bo'ldi⁵. Ushbu mamlakat ajoyib taomlari, noyob madaniy merosi, samimiy va hayotsevar xalqi bilan mashhur. Biroq boshqa ko'plab mamlakatlarning gastronomik va madaniy merosi ham shunday noyob bo'lishiga qaramay, ular dunyo sayyohlari nazaridan chetda qolmoqdalar. Gruziyaning aksariyat davlatlar uchun vizani bekor qilgani o'z navbatida sayyohlar sonining keskin

³ N.Xaydarov. Turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi. Ochiq iqtisodiyot: sog'lom raqobat, biznes muhiti investitsion muhit jozibadorligi / Xalqaro amaliy anjuman / TDIU

⁴ Kujelya Yu. L. Turizm i gostepriimstvo. Uchebnik:- M. : Izdatelstvo Yurayt, 2018. — 439 s.

⁵ Morozova N., Morozov M., Informatsionnoye obespecheniye turizma. Uchebnik. Moskva, KnoRus, 2016, 7 c

oshishigasabab bo‘ldi.

Xulosa va takliflar : Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda “Yevropaning aqlli turizm poytaxti” tashabbusi (The European Capital of Smart Tourism initiative) ilgari surilmoqda. Ushbu tashabbus “aqlli turizm” vositalarini, chora-tadbirlarini qamrab oladi hamda shaharlarda to‘rtta toifa: baqarorlik, nogironligi bor insonlar uchun maxsus imkoniyatlar yaratib berish, raqamlashtirish, madaniy meros va ijodkorona yondashuv bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalardan xabardorlikni oshirishni nazarda tutadi. Turizmni rivojlantirish strategiyasi mahalliy hamjamiyatlarni mazkur soha orqali qanchalik ko‘p qo‘llab-quvvatlasa, u mamlakatda shunchalik barqaror bo‘ladi. Olinadigan daromadlardan foydalanishning eng yaxshi yo‘li yodgorliklarni ta‘mirlash, hamjamiyatni qo‘llab-quvvatlash, odamlarga huquq va imkoniyatlar berish, kambag‘allik darajasini pasaytirish⁶. Barqaror turizm ham mehmonlarning, ham ularga mezbonlik qiluvchi shaharlarning xavfsizligini ta‘minlashi, atrof-muhitning ifloslanishiga va aholi tiqilinch bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Turistlar oqimini adolatli taqsimlash ham barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Bu rivojlangan mamlakatlar uchun ham, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham birday muhim. Xulosa o‘rnida shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan huquqiy tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Mazkur sohani rivojlantirish maqsadida tadbirkorlarga juda katta imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berilganligi soha rivojining asosiy omili bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda ba‘zi bir kamchilik va foydalanilmayotgan imkoniyatlar borki, ularni bartaraf etish va bu yo‘lda rivojlangan xorijiy davlatlarning ijobiy tajribalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611 Farmoni.
2. Kujelya Yu. L. Turizm i gostepriimstvo. Uchebnik:- M. : Izdatelstvo Yurayt, 2018. — 439 s.
3. Morozova N., Morozov M., Informatsionnoye obespecheniye turizma. Uchebnik. Moskva, KnoRus, 2016, 7 c
4. N.Xaydarov. Turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi. Ochiq iqtisodiyot: sog‘lom raqobat, biznes muhiti investitsion muhit jozibadorligi / Xalqaro amaliy anjuman / TDIU
5. Travel & Tourism Economic Impact 2018 world.
6. <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2017/10/31/central-asia-tourisma-driver-for-development>

⁶ Kujelya Yu. L. Turizm i gostepriimstvo. Uchebnik:- M. : Izdatelstvo Yurayt, 2018. — 439 s